ADABIYOTSHUNOSLIK

UDK: 894.375. **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a94**

ALISHER NAVOIYNING “NAZM UL-JAVOHIR” ASARIDA QOFIYA SATHI VA ASAR POETIKASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE RHYME LEVEL AND THE POETICS OF THE WORK IN "NAZM UL-JAVAHIR" BY ALISHER NAVAI

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ УРОВНЕМ РИФМЫ И ПОЭТИКОЙ ПРОИЗВЕДЕНИЯ В "НАЗМ УЛ-ДЖАВАХИР" АЛИШЕРА НАВОИ

Xo‘jayeva Shoiraxon Baxtiyor qizi[1]

[1]**Xo‘jayeva Shoiraxon Baxtiyor qizi** – Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarida qofiya sathining asar poetikasiga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda struktural metod asosida mazkur asar qofiyasining raviygacha bo‘lgan tarkibga ko‘ra mujarrad, murdaf, muqayyad va muassas turlari; raviydan keyingi tarkibga ko‘ra muqayyad va mutlaqqofiya turlari keng ko‘lamda tadqiq etilgan hamda “Nazmul-javohir” ruboiylarida qo‘llangan qofiyalar asar poetikasining barkamolligini ta’minlagani ochib berilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена изучению влияния уровня рифмовки на поэтику произведения Алишера Навои «Назм ул-джавахир». В нем, исходя из структурного метода, виды рифмовки этого произведения - муджаррад, мурдаф, мукайяд и муассас по содержанию стихотворения перед равий; мукайяд и мутлак виды рифм по содержанию стихотворения после равий широко исследованы и выявлено, что рифмы, использованные в рубайах «Назм ул-джавахир», обеспечивают совершенство поэтики произведения.

Abstract

This article is devoted to the study of the influence of the rhyme level on the poetics of Alisher Navoi’s work "Nazm ul-javahir". In it, based on the structural method, the types of the rhyme of this work are mujarrad, murdaf, muqayyad and muassas rhymes according to the content of the poem before the raviy; the types of muqayyad and mutlaq rhymes according to the content of the poem after the raviy have been extensively researched and it has been revealed that the rhymes used in the rubaiys of “Nazm ul-javahir” ensure the perfection of the poetics of the work.

Kalit so‘zlar: *ruboiy,hikmat, qofiya, ilmi qavofe’, musarra’, muraddaf, hazaj, ramal, radif, raviy.*

Ключевые слова: *рубаи, хикмат, рифма, наука о рифме, мусарраъ, мураддаф, хазадж, рамаль, радиф, равий.*

Key words: *rubai, wisdom, rhyme, science of qawafe’, musarra’, muraddaf, hazaj, ramal, radif, raviy.*

KIRISH

Qofiya she’rning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, mumtoz she’riyatimizda unga badiiyatning asosiy omili sifatida qaralgan. Shu bois mumtoz adabiyotshunosligimizda qofiyani o‘rganuvchi maxsus soha – ilmi qofiya vujudga kelgan. Nazm ilmini o‘rganishda qofiya saboqlarining ahamiyati borasida Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida shunday fikrlarni bildiradi: “Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab’g‘a qofiya ilmin bilmak muhimdir. Zeroki, tab’ning natijasi she’rdur. Va she’rning asli qofiya. Va qofiyasiz she’r mumkin ermas… Va zurafo baytni xayma (chodir)g‘a nisbat qilibturlar va qofiyani stung‘a. Ya’ni xayma stun birla barpoydir”. [6,3]

Qofiya ilmida asosiy e’tibor qofiyaga tanlangan so‘zlarning ohangdor va jozibadorligiga, chuqur mazmunga egaligiga hamda uning mavzuga muvofiqligi, asarda ko‘tarilgan g‘oya mohiyatini ochishdagi o‘rniga qaratiladi. Zero, “qofiya she’riy asarlarda ifodalanayotgan ijtimoiy-axloqiy g‘oyalar, teran falsafiy mushohadalarni badiiy so‘z vositasida jozibali va ta’sirchan aks ettirishning muhim vositalaridan biridir”. [7,195]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Nazm ul-javohir” ruboiylarining qofiyasi xususida Navoiyning o‘z davrida ham, keyingi davr navoiyshunosligida ham ko‘plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, zamonasining mashhur tarixchisi Xondamir o‘zining “Makorim ul-axloq” asarida shunday yozadi: “Nasr ul-laoliy”ning turkiycha tarjimasida ikki yuz oltmish ruboiy nazm qilgandirlarki, uning har to‘rt misrai bir xil qofiya va bir xil radiflidir. Ko‘rinishicha, ul Hazratdin ilgari hech kim turkiy tilda ruboiy aytmagan, har to‘rt misrai qofiyadosh va radifdosh bo‘lganiga nima yetsin”. [5,50]

Shu o‘rinda asar tarjimonlari M.Faxriddinov va P.Shamsiyev mazkur ta’kidga: “Navoiyga qadar bir necha o‘zbek shoirlari turkiy tilda ruboiy aytganlari ma’lumdir. Lekin Xondamir bu yerda ma’lum darajada mubolag‘a qilgan ko‘rinadi, aftidan, serma’no, eng go‘zal ruboiylarni Navoiy yaratdi, demoqchi bo‘lsa kerak”, – deya izoh berib o‘tadilar. [5,50]

M.Rajabova ayni shu xususda so‘z yuritib, “Turkiy tilda Navoiygacha Hofiz Xorazmiy va Lutfiy ruboiylari ham mashhur bo‘lganini hisobga olsak, Xondamirning yuqoridagi mulohazalari Navoiy ruboiylari g‘oyaviy-badiiy jihatidan mahoratining balandligiga berilgan yuksak bahosi deb ham qarash mumkin”,– degan fikrni bildiradi. [3,104]

Yo.Ishoqov bu xususda shunday xulosa qiladi: “Lutfiy devonidagi to‘rtliklarning asosiy qismi ramal bahrida yozilgan. Lekin ular o‘zbek yozma adabiyotida klassik ruboiy janrining shakllanishida muhim bosqich bo‘lganligi, shubhasiz. Yaqinda aniqlangan Hofiz Xorazmiyning she’rlari esa Navoiyga ma’lum bo‘lmaganligi aniq. Demak, Navoiy o‘zbek adabiyoti tarixida klassik ruboiy janrining asoschisi hisoblanadi”. [2,79]

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashtirib, shunday xulosa qilish mumkinki, ruboiy janr sifatida turkiy adabiyotda Navoiydan avval ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, e’tiborli janr sifatida keng ommalashmagan. Alisher Navoiy, bir tomondan, bu janrni shakliy jihatdan boyitib, taronayi ruboiyga asos solgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘zi ham ushbu yo‘nalishda barakali ijod qilib, uni g‘azaldan keyingi eng ahamiyatli janr sifatida mavqeini yuksaltirgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Nazm ul-javohir” ruboiylarining qofiya xususiyatlarini tadqiq etish orqali raviygacha bo‘lgan tarkibiga ko‘ra qofiyaning quyidagi turlari mavjud ekanligi aniqlandi:

1. Mujarrad qofiya. Mujarrad qofiya Navoiy ijodida ham, butun mumtoz adabiyotimizda ham eng keng qo‘llangan qofiya turlaridan bo‘lib, u ikki turli bo‘ladi:

a) raviy cho‘ziq unli bilan ifodalangan qofiya;

b) raviy undosh bilan ifodalanib, uning oldida qisqa unli (tavjih) kelgan qofiya. Masalan:

Shukr ayladi shiddatda rijo izhori,
Har mehnat aro daf’i balo izhori,
Mol istar esang shukr-u sano izhori,
Kim shukr demak qilur g‘ino izhori. [1,106]

ruboiysida rijo – balo – sano – g‘ino qofiyalari mujarrad bo‘lib, raviysi cho‘ziq “o” unlisidir. E’tiborli jihati shuki, ushbu ruboiy Hazrat Alining “Izhor ul-g‘aniy min ash-shukri” (“Boylikning izhori shukrdir”) hikmati asosida bitilgan bo‘lib, undagi asoiy masala – shukr qilmoqlik sanaladi. Qofiyaga olingan so‘zlarga yuqorida keltirilgan qofiya talablari asosida yondashsak, ularning ham ohangdor, ham sermazmun so‘zlar bo‘lish bilan birga, mavzuga har jihatdan muvofiq ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin. Darhaqiqat, shukr og‘ir kunlarda rijo (ezgu umid)ni, mashaqqatga yo‘liqqanda daf’i balo (baloni daf qilish)ni ifoda etgani holda inson biror maqsadiga yetmoqni istar ekan, avvalo, shukru sano qilmog‘i lozim. Negaki, shukr demoqlik – g‘ino (boylik) izhoridir. Ya’ni chinakam boy inson deb moddiy jihatdan emas, avvalo, ma’naviy jihatdan kamolotga yetgan kishiga aytiladi. Ma’nan barkamol inson esa mudom shukrda bo‘ladi. Demak, noshukrlik kishi ma’naviyatidagi nuqsonni ko‘rsatuvchi jihat bo‘lsa, shokirlik inson ma’naviyatidagi komillikni aks ettiruvchi fazilat ekan.

Quyidagi ruboiy esa mujarrad qofiyaning ikkinchi turiga misol bo‘lib, undagi maskan – ma’man – fan – ravshan qofiyadosh so‘zlari tarkibidagi “n” undoshi raviy sanaladi va undan oldingi “a” qisqa unlisi tavjih vazifasini bajargan:

Har kimki xushu’ uyini maskan qilg‘ay,
Olam sijinin haq anga ma’man qilg‘ay,
Haq vahmidin ulki yig‘lamoq fan qilg‘ay,
Ul ashk aning ko‘zini ravshan qilg‘ay. [1,108]

Ruboiy Hazrat Alining “Buqo ul-mar’iy hashyat illahi qurrat ul-ayni” (“Kishining Allohdan qo‘rqib yig‘lashi uning ko‘zini ravshan qiladi”) hikmati asosida bitilgan bo‘lib, hikmat mazmuni she’rning uchinchi va to‘rtinchi misralarida ifoda etilgan. Birinchi va ikkinchi misralar esa ayni masalaga buyuk shoirning munosabati bo‘lib, unga ko‘ra, kimki Alloh qarshisida qullik maqomida tursa, ya’ni o‘zini past tutsa (xushu’), haq taolo butun yer yuzini unga omonlik go‘shasiga aylantirib qo‘yadi. Ushbu qo‘shmisrada qofiyadosh bo‘lib kelgan maskan va ma’man so‘zlari nafaqat shaklan, mazmunan ham bir-biriga muvofiqdir. Ya’ni “maskan” so‘zi “sokin” so‘zi bilan asosdosh bo‘lib

“turarjoy” ma’nosini anglatsa, “ma’man” so‘zi “omon” so‘zi bilan asosdosh bo‘lib, “omonlik joyi” degan ma’noni bildiradi. So‘nggi baytda esa hikmat mazmuniga muvofiq ravishda kim Allohdan qo‘rqib yig‘lashni o‘ziga fan (odat) qilsa, bu ko‘zyoshlar uning ko‘zini ravshan qilishi ta’kidlanadi. Ko‘rinib turganidek, qofiyaga olingan so‘zlar nihoyatda jozibador va ma’nodor bo‘lish bilan birga, asar g‘oyasini ochib berishga ham to‘liq xizmat qilishi bilan qofiya talablariga to‘la mos keladi.

2. Murdaf (ridfli) qofiya. Ushbu tur qofiyaning ham ikki xil ko‘rinishi bor: asliy ridfli murdaf qofiya va zoyid ridfli murdaf qofiya. “Nazm ul-javohir”da ushbu qofiyaning faqat birinchi turidan foydalanilgan.

Asliy ridfli murdaf qofiyada raviy harfidan oldin cho‘ziq unlilardan biri keladi. Ilmi qofiyada u ridf deb ataladi. “She’riyatimizda raviydan oldin “o” cho‘ziq unlisi kelgan murdaf qofiya juda ko‘p qo‘llangan” [7,200] bo‘lib, “Nazm ul-javohir”da ham bunga ko‘plab misollar topish mumkin:

Bermas tatvil chun suxandon so‘zga,
Qil muxtasar ulcha bo‘lg‘ay imkon so‘zga,
Ko‘p ayb topar kimsa farovon so‘zga,
Chun chekti uzoqqa, yetti nuqson so‘zga. [1,134]

Hazrat Alining “Ayb ul-kalomi taviyluhu” (“Kalomning aybi uning uzunligida”) hikmatiga asoslangan ushbu ruboiyda ham suhandon – imkon – farovon – nuqson so‘zlari qofiyadoshligi asosida teran mazmun go‘zal shaklda taqdim etilgan. Navoiyning poetik mahorati shundaki, u ruboiyning bosh g‘oyasini tarannum etuvchi so‘zni radif sifatida keltiradi va bosh g‘oya mazmunini ochib beruvchi so‘zlardan qofiya vazifasida foydalanadi. Diqqat qaratsak, ruboiydagi qofiyadosh so‘zlar ayni damda butun asar mazmunining eng muhim nuqtalarini ochib beruvchi kalitso‘zlardir. Demak, Alisher Navoiy uchun qofiya faqat misralar oxirida keluvchi o‘zaro ohangdosh so‘zlargina emas, balki butun asar mohiyatini ochib beruvchi, masalaning eng nozik nuqtalarini ko‘rsatuvchi purma’no so‘zlar hamdir.

3. Muqayyad (qaydli) qofiya. “Bu xil qofiyalarda qo‘sh undosh qisqa unlidan so‘ng keladi. Qisqa unli hazv, raviydan oldingi undosh qayd deb ataladi”. [7,202]

Nutqungni ulusqa o‘ylakim shahd ayla,
So‘z talx demasga haq bila ahd ayla,
Joningni xudo mahzi uchun mahd ayla,
Jannat talabida jid bila jahd ayla. [1,126]

Mazkur ruboiyda shahd – ahd – mahd – jahd qofiyalaridagi “a” qisqa unlisi – hazv, “h” undoshi – qayd, “d” undoshi esa raviydir. Ruboiy Hazrat Alining “Shammir fi talab il-jannati” (“Jannatga erishish uchun harakat qil”) hikmati mazmunini ifoda etadi. Hikmat buyruq gap shaklida bo‘lgani bois undagi chaqiriq va da’vat ruhi ruboiyda ham yetakchilik qilgan. Shoir tomonidan “ayla” buyruq fe’lining radif sifatida tanlangani ham ruboiy ruhiga hamohangdir. Shuningdek, qofiya sifatida keltirilgan so‘zlar ham kishini ruhlantiruvchi, uni muayyan maqsad sari undovchi, insonni oldinda kutishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni mardonavor yengib o‘tishga tayyorlovchi va kishi ko‘nglida mardlik, kurashchanlik zavqini uyg‘otuvchi so‘zlardir.

4. Muassas (ta’sisli) qofiya. “Cho‘ziq “o” unlisi (faqat cho‘ziq “o” unlisi) bilan raviy o‘rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladigan qofiya muassas (ta’sisli) qofiya deyiladi. Cho‘ziq “o” unlisi ta’sis deb, undan keyingi undosh daxil deb, raviy oldidagi qisqa unli esa ishbo‘ deb ataladi”. [7,203] Buni quyidagi ruboiy misolida ko‘rib o‘tsak:

Nafs uyiga sabr ila imorat angla,
Besabrlig‘in aning sharorat angla,
Ish sabr sari anga ishorat angla,
Sabrini zafar sari bashorat angla. [1,107]

Bu yerda imorat – sharorat – ishorat – bashorat qofiyalari muassas bo‘lib, undagi cho‘ziq “o” unlisi – ta’sis, “r” undoshi – daxil, “a” qisqa unlisi – ishbo‘, “t” undoshi esa raviydir.

Kuzatishlarimiz natijasida ma’lum bo‘ldiki, muassas qofiya boshqa qofiya turlaridan o‘zining serjilo va jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Bunda cho‘ziq “o” unlisining o‘rni kattadir. A.Rustamov “Ta’sis qofiyaga xushohanglik bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham ta’sisli qofiya “muassasa” deyilib, muassasa san’at hisoblanadi”, deydi. [4,13]

Muassas qofiyalarda daxilning mos kelishi shart emas. [4,11] Mumtoz adiblarimiz ijodini kuzatar ekanmiz, muassas qofiyaga murojaat qilganlarida daxilning har doim ham bir xil harfdan

iborat bo‘lavermaganiga guvoh bo‘lamiz. “Nazm ul-javohir”da ham bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Quyidagi ruboiy ham shular jumlasidandir:

Iymoni aningki kufrig‘a sotir erur,
Chin nukta demakka ul kishi qodir erur,
Har kimsaki iymon ishida mohir erur,
Iymonini bilki, ontidin zohir erur. [1,105]

Ruboiy qofiyasini hosil qiluvchi sotir – qodir – mohir – zohir so‘zlari “o” unlisi va raviy o‘rtasida bir undosh va bir unlining kelishi bilan muassas qofiyani yuzaga keltirgan. Bunda qisqa unlilar bir xil bo‘lgani holda “daxil” vazifasida keluvchi undoshlar bir-biridan farq qiladi.

A.Hojiahmedovning bergan ma’lumotiga ko‘ra, “muassas qofiyalar lirik she’riyatda juda kam qo‘llanadi. Shoirlar bu xil qofiyaga ko‘proq epik she’riyatda murojaat qilganlar. Shunda ham ular jami qofiyaning 3,5-7 foizidan oshmaydi”. [7,204] Ana shu lirik tur uchun xarakterli bo‘lmagan qofiya turini kichik lirik janr bo‘lgan ruboiyga olib kirilishi Navoiy poetik mahoratining bir qirrasidir.

Qofiya raviydan keyingi tarkibiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: muqayyad qofiya va mutlaq qofiya. Raviy bilan tugallanuvchi qofiya **muqayyad qofiya,** raviy bilan tugallanmay, undan keyin tovushlar kelgan qofiya **mutlaq qofiya** deyiladi. Mutlaq qofiya tarkibida raviydan keyin keluvchi harflar turlicha ataladi. Raviydan keyin keladigan yozuvda ifodalanuvchi harf (undosh yoki cho‘ziq unli)larning nomi shunday ketma-ketlikda ataladi: vasl, huruj, mazid, noyira. Raviydan so‘ng keluvchi yozuvda ifodalanmaydigan (qisqa) unli (harakat)lar majro deb, vasl, huruj, mazid, noyiradan keyin turuvchi qisqa unlilar nafoz deb yuritiladi. [7,205]

“Nazm ul-javohir”da qo‘llangan qofiya turlarini A.Rustamov tasnifi asosida tadqiq etar ekanmiz, unda muqayyad qofiyaning quyidagi 5 turidan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin: 1) muqayyadi mujarrad qofiya; 2) ta’sisli muqayyad qofiya; 3) ta’sis va daxilli muqayyad qofiya; 4) ridfi asliyli muqayyad qofiya; 5) qaydli muqayyad qofiya:

Shuningdek, asarda mutlaq qofiyaning quyidagi 8 turi qo‘llanganini aniqladik: 1) mutlaqi mujarrad qofiya; 2) ta’sis va daxilli mutlaq qofiya; 3) ridfi asliyli mutlaq qofiya; 4) qaydli mutlaq qofiya; 5) hurujli mutlaq qofiya; 6) ridfi asliy va hurujli mutlaq qofiya; 7) noyirali mutlaq qofiya; 8) ridfi asliy va noyirali mutlaq qofiya.

XULOSA

Muxtasar aytganda, Alisher Navoiy Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalarining ijodini puxta o‘zlashtirgani va ularning qofiyadan foydalanish mahoratini chuqur o‘rgangani holda o‘zi uchun maxsus qofiya tizimini ishlab chiqqan. Shu sababli Navoiy qofiyalari mutlaqo originaldir.

Xususan, “Nazm ul-javohir” ruboiylarida qo‘llangan qofiyalar shakl va mazmun jihatidan o‘zaro uyg‘un bo‘lib, bu esa asar poetikasining barkamolligini ta’minlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. 15-жилд. – Т.: Фан,1999. (Alisher Navoi. Nazm ul-jawahir. MAT. 20 volumes. Volume 15. - T.: Fan, 1999.)

2. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси (“Хазойин ул-маоний” асосида). – Т.: Фан, 1983. (Ishakov Yo. Navoi’s poetics (based on Khazayin ul-Maani). - T.: Fan, 1983.)

3. Ражабова М. Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асарининг манбалари ва бадиияти: Фил. фан. номз. дисс. – Т., 2007. (Rajabova M. Sources and artistry of Alisher Navoi’s work "Nazm ul-Javahir". PhD. diss. - T., 2007.)

4. Рустамов А. Қофия нима? – Т.: Фан, 1975. (Rustamov A. What is the rhyme? – T.: Fan, 1975.)

5. Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Т., 1967. (Khondamir. Makorim ul-akhlaq. - T., 1967.)

6. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи профессор А.Ҳайитметов) – Т.: Хазина, 1996. (Sheikh Ahmed bin Khudoidad Tarazi. Funun ul-baloga (preparer, author of the foreword and annotations Professor A. Hayitmetov) - T.: Khazina, 1996.)

7. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1998. (Hojiahmedov A. The merit of classical artistry. - T.: Sharq, 1998.)